

KORRUPSIYAVIY HOLATLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA XORIJ TAJRIBASI

Ibragimova Shahzoda Shuxrat qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tergov faoliyati talabasi

e-mail: ibragimovashahzoda0303@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13916889>

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi, bugungi kundagi mamlakatimizdagi korrupsiyaning muhim sabablari nimalardan tashkil topganligi, korrupsiyaga qarshi kurashishda asosiy e'tibor nimalarga qaratish kerakligi, statistic ma'lumotlar, mutaxassilarning fikrlari va bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi xorijiy tajribasi tahlil qilingan. Xususan, xorijiy davlatlardan Singapur, Daniya, Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya va Gruziya davlatlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi tajribasi o'r ganilib, tahlil qilindi. Tadqiqot ishimizda korrupsiyani oldini olishga oid masalalar yuzasidan boshqa davlatlarning tajribasi asosida amaliy taklif va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, poraxo'rlik, korrupsiyaviy jinoyatlar, xorijiy tajriba.

FACTORS CAUSING CORRUPTION SITUATIONS AND FOREIGN EXPERIENCE IN FIGHTING AGAINST CORRUPTION

Abstract. This article analyzes the concept of corruption, the fight against corruption, what are the important causes of corruption in our country today, what should be the main focus in the fight against corruption, statistical data, the opinions of experts and the foreign experience of today's developed countries in the fight against corruption. In particular, the experience of Singapore, Denmark, Sweden, Norway, Finland and Georgia in fighting corruption was studied and analyzed. In our research work, practical suggestions and conclusions are given based on the experience of other countries regarding issues related to the prevention of corruption.

Key words: corruption, fight against corruption, bribery, corrupt crimes, foreign experience.

ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ КОРРУПЦИОННУЮ СИТУАЦИЮ, И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

Аннотация. В данной статье понятие коррупции, борьба с коррупцией, каковы важные причины коррупции в нашей стране сегодня, на что следует обратить основное внимание в борьбе с коррупцией, статистические данные, мнения экспертов и зарубежных. анализируется опыт развитых стран в борьбе с коррупцией. В частности, был изучен и проанализирован опыт Сингапура, Дании, Швеции, Норвегии, Финляндии и Грузии в борьбе с коррупцией. В нашей исследовательской работе даются практические предложения и выводы, основанные на опыте других стран по вопросам, связанным с предотвращением коррупции.

Ключевые слова: коррупция, борьба с коррупцией, взяточничество, коррупционные преступления, зарубежный опыт.

KIRISH

Bilamizki, korrupsiya bugungi kunda jahon miqiyosida keng tarqalayotgan va barchaning e'tiborini diqqat bilan tortayotgan mavzularidan biri hisoblanadi. Mamlakat yuksalishiga jiddiy to'siq bo'ladigan va barcha sohlarni rivojlanishiga salbiy ta'sir uyg'otadigan illatlardan biri bu – korrupsiya hisoblanadi. Davlat va jamiyat boshqaruvini yanada takomillashtirish va modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvida barcha sohalarni liberallashtirish shart-sharoitlarida davlat mansabdorlari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeyini suiiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir qilinishi davlat hokimiyatining obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga, natijada, davlat hokimiyati faoliyati samaradorligining susayishiga sabab bo'ladi. Korrupsiya inson huquq va erkinliklarini kafolatlarini izdan chiqaradi. Jamiyatda shaxslar o'rtasida ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarga aholining ishonchsizligini yuzaga keltiradi va bundan tashqari, ijtimoiy munosabatlardaadolatsizliklarni yuzaga keltiradi. Aholi o'rtasida turli xil norozilik kayfiyatlarini yuzaga keltiradi, davlat organlarining barqarorligini izdan chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach o'z oldiga mamlakatni rivojlantirish uchun bir qator vazifalar qo'ydi, turli sohalarni rivojlantirish va tartibga solish uchun qator islohotlar amalga oshirildi shuningdek, bir qancha qonun va qonun osti hujjalarni ishlab chiqdi. Ammo korrupsiyaga qarshi kurashish uchun zarur choralar amalga oshirilmadi. Shavkat Mirziyoyev Respublikaga Prezident etib saylangandan keyin ushbu sohada bir qator qonun va qonun osti hujjalarni qabul qildi. Tarixiy voqealardan bir shuki, 2017-yil "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" 419-sonli qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qabul qilinganidan so'ng korruptsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining asosiy yo'naliшlari belgilandi va mansabdorlarga bir qancha vazifa va majburiyatlar yuklandi. Aynan yuqoridagi qonunda korruptsiyaga o'zi nima ekanligiga alohida to'xtalib o'tilgan. Korruptsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir. Qonunning ijrosini ta'minlash yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirildi va yana bir qancha Prezident farmonlari qabul qilindi. Ammo korruptsiyaga qarshi kurashish Kundan kunga barchani xavotirga solmoqda va jiddiy tanqidiy muhokamalarga sabab bo'lib kelmoqda. Tahlillarga ko'ra, hozirda korruptsiyaning dunyo miqiyosidagi zarari 3 trillion AQSH dollariga yaqin miqdorni tashkil qilmoqda, uning salkam 1 trillion AQSH dollarini aynan pora berish va olish holatlari tashkil etadi. Bunda, global miqiyosda korruptsiya tufayli davlat xaridlari fondlarining 25 foizgacha qismi yo'qotiladi. O'z navbatida, ushbu raqam jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizini tashkil etishi korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining salbiy holatda saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi. Aytaylik, birgina O'zbekistonda davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzilganligi bo'yicha 2021-yilda 147 ta, 2022-yilda 662 ta va 2023-yil 6 oyida 729 ta ma'muriy huquqbazarliklar sodir etilgan.

Ko'pchilik mutaxassislar korruptsiyaning sabablari siyosiy insitutlarning mukammal emasligiga bog'liq deb bilishadi. Ularning fikricha, mamlakatning ichki va tashqi boshqarish mexanizmlari, asosan, ushbu insitutlarning qanday ishlashiga bog'liqdir. Bundan tashqari, axolining qonunni bilmasligi yoki tushunmasligi, mamlakatdagi siyosiy holatning barqaror emasligi, hukumat insitutlarining o'zaro hamkorlikda harakat qilish mexanizmlarining sustligi,

yuqori turuvchi amaldorlarning tanish-bilish, quad anda bo'lib hukumatni boshqarishga o'z ta'sirini o'tkazishi, ijro hokimiyatida birlikning yo'qolishi va asosiysi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokining sustligi va boshqa holatlar korrupsiyaning sabablaridan desak bo'ladi.

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada korrupsiyaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan mamlakatlarning tajribalari tahlil qilingan. Ushbu maqola mavzuga oid nazariy bilim, tushunchalardan boshlangan hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlarning tajribalari o'rganilgan va tahlil qilingan, xorij tajribasini milliy qonunchiligidan joriy qilishga oid xulosalar bilan yakunlangan.

TADQIQOT NATIJALARI

Korruptsiyaga qarshi kurashishda xalqaro institutlar Ichida Birlashgan Millatlar Tashkiloti muhim rol o'yndaydi. Birlashgan Millatlar Tomonidan qabul qilingan korruptsiyaga qarshi kurashga yo'naltirilgan hujjatlar Ichida 2003-yilda qabul qilingan Korruptsiyaga Qarshi Konvensiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2008-yilda O'zbekiston ushbu Konvensiyaga qo'shilgan. O'zbekiston 2021-yilda Xalqaro Ochiq ma'lumotlar xartiyasiga a'zo bo'ldi. Mamlakatimiz Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosyo va Egmont guruhlari, boshqa ko'plab platformalarda samarali ishtirok etib kelmoqda. G'arbiy va Markaziy Osiyo davlatlarining aktivlarni qaytarish tarmog'ining Kotibiyati vazifasini bajarmoqda. Korruptsiyaga qarshi kurashishda nafaqat BMT, balki Yevropa Ittifoqi, Jahon banki, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Butunjahon bojxona tashkiloti ham korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'zlarining faoliyatida alohida e'tibor bermoqda.

Korruptsiyaga qarshi kurashishda xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qiladigan bo'lsak: Singapurda vazirlar va boshqa mansabdorlarning oylik maoshi xususiy sektordagi tashkilotlar rahbarlari maoshi darajasigacha ko'tarilgan, xodimlar masalasida ham shunday. E'tiborli shuki, xususiy sektorda rahbar va xodimlar daromadi oshib borishi barobarida, parallel ravishda, davlar xizmatchilarini oyliklari ham ko'tarilib boriladi. Shuningdek, davlat idoralariga yetuk kadrlarni yetishtirib beruvchi murakkab va mukammal mexanizm yaratilgan. Singapurda nafaqat davlat xizmatchilarining oylik ish haqini ko'tarish, qonuniy asoslarni mustahkamlash va jazoni kuchaytirish balki meritokratiyaga ham asoslangan. Davlat xaridlarni amalga oshirish bo'yicha moliyaviy organlarning aniq qoidalari va standart ko'rsatmalarining mavjudligi biznes va tashkilotlarda qonunbuzilish holatlarini aniqlashga yordam beradi. Hisob kitoblarning aniq yuritilishi va muntazam tekshiruvlar ham korruptsiyani oldini olishning yaxshi usullari hisoblanadi.

Daniya nafaqat Yevropadagi, balki butun jahonda korruptsiya darajasi eng past bo'lgan davlat hisoblanadi. Xabarlarga ko'ra, Daniyaliklar o'rtasida ijtimoiy so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, Daniyada asosan, mansabdorlarga turli ko'rinishdagi sovg'alar berish shaklida namoyon bo'lib, bu mamlakatda "mayda korruptsiya" mavjudligidan dalolat beradi. Mamlakatda pul aylanmalari shaffof, barcha daromad va xarajatlar ochiq. Jamoat tashkilotlari va maxsus nazorat organlari ochiq faoliyat ko'rsatib, kompaniyalarning faoliyati va moliyaviy axvoli haqidagi ma'lumotlarni Internetda e'lon qilib boradi. Daniyada korruptsiya darajasi past bo'lishining sabablaridan yana biri shundaki, aksariyat kompaniyalar korruptsiyaga nisbatan "nol

murosasizlik” siyosatiga rioya qilishadi, ya’ni o’z kompaniyalari Ichida ham, hamkorlar bilan hamkorlik jarayonida ham poraxo’rlikning qabul qilinmasligidir. Jamoatchilik a’zolari korrupsiyani Daniya jamiyatidagi asosiy muammo deb hisoblamaydi. Daniya mamlakatida davlat imtiyozlari va xizmatlaridan foydalanish uchun to’lanadigan pora deyarli yo’q.

Gruziya 2004-yildan keyin korrupsiyaga qarshi kurashda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu jarayonda bir qator kuchli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat idoralari faoliyatida shaffoflikni oshirish va barcha davlat xizmatlari jarayonlarini soddalashtirish orqali korrupsiyaning oldini oldi.

- Korrupsiyada gumon qilingan yuqori lavozimdagи amaldorlar qattiq jazolandи, bu esa boshqa amaldorlarga ogohlantiruvchi misol bo’ldi.

- Fuqarolarning hukumat faoliyatini kuzatish qobiliyatini oshirish orqali jamoatchilik nazoratini mustahkamladi.

Norvegiya ham Yevropada, ham jahonda korrupsiya darajasi eng past bo’lgan davlatlardan biri. Norvegiya korrupsiyaga qarshi juda qattiq qonunchilikka, tegishli xalqaro mexanizmlarda faol ishtiroy etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida ta’kidlash mumkinki, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish maqsadida, ushbu yo’nalishdagi jinoyatchilikka qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Shvetsiya ham korrupsiya darajasi eng past davlat hisoblanadi. Shvetsiyada jazo tizimiga alohida e’tibor beriladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda Shvetsiya rasmiylari va biznes doiralari faoliyati ustidan jamoaatchilik nazorati katta kuchga ega va ommaviy axborot vositalari asosiy rol o’ynaydi. Shvetsiyaning har bir fuqarosi har qanday davlat idorasiga qo’ng’iroq qilishi yoki yozma ravishda murojaat qilishi va rasmiy hujjatni talab qilishi mumkin. Davlat hujjatlariga jamoatchilikning kirish prinsipi 1766 yildan buyon mavjud bo’lib, bu matbuot erkinligi bo’yicha dunyodagi birinchi qonun xujjalardan biri hisoblanadi. Jamiyatning axborotdan foydalanish prinsipi, aslida, korrupsiyaga qarshi kurashishda eng samarali vositalardan biriga aylangan.

Finlandiya ham korrupsiya eng kam ta’sir qiladigan davlatlardan biridir. Asosiy tamoyillaridan biri – hokimiyatni boshqarish jarayonining shaffofligi, davlat xizmatchilarining ma’suliysi va xalolligi. Shunisi qiziqliki, Finlandiyada davlat xizmatchilar soni so’nggi 20 yil ichida sezilarli ravishda qisqartirilgan va bu davlat faoliyati samaradorligini oshirgan. Mansabdor shaxslar korruption jinoyat sodir etsa ushbu jinoyatlar jiddiy sanksiyalar bilan tavsiflanadi. Agarda mansabdor shaxs korruption jinoyat sodir etsa u nafaqat davlat sektorida, balki tijorat va notijorat tashkilotlarda ham yuqori lavozimlarda ishlay olmaydi. Finlandiyada korrupsiya darajasining pastligiga ta’sir qiluvchi muhim omil aholining eng kambag’al va boy qatlamlari daromadlari o’rtasidagi tavofutning juda kichikligi. Finlandiyaning “Davlat xizmatchilar to’g’risidagi” qonunga muvofiq, mansabdor shaxslarga sovg’alar, mexmondo’stlik belgilarini qabul qilish va ular ta’sir qilishi mumkin bo’lgan, manfaatdor shaxslar hisobidan ko’ngilochar xizmatlardan foydalanish ta’qilanganadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida korrupsiya davlatlar rivojlanishiga, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy yuksalishiga to’sqinlik qilayotgan salbiy illat sifatida paydo bo’ldi. Korrupsiya mavjud ekan jamiyatning birorta tarmog’i to’liq darajada yuksalib rivojlanmaydi. **Korrupsiyaning muhim sabablari nimalardan tashkil topgan?**

Birinchidan, korrupsiya jinoyatlariga qarshi kurashish borasidagi mutaxassislarini tayyorlash borasidagi kamchiliklar xususan, ta’lim sifatining pastligi va o’quv-metodik ta’minot darajasining pastligi.

Ikkinchidan, qarindosh urug’, quda-andalarning xizmat bo'yicha bir birini qo'llab-quvvatlashi, umumiy va adolatli tartibni buzib qarindoshlari va yaqinlariga daromadli va foydali mansablarni taqdim etish.

Uchinchidan, eng asosiyalaridan biri – davlat va xususiy sektorda shaffoflik va hisobdorlik yetarli darajada ta’minlanmaganlik.

To'rtinchidan, ichki va tashqi nazoratdagi bo'shliqlar ularning sust ishlashi va resurslar bilan yetarli darajada ta’minlanmaganlik.

Beshinchidan, qashshoqlik va tengsizlikni mavjudligi.

Oltinchidan, Jamoatchilik aralashuvini ko'paytirilishini yetarli darajada ta’minlanmaganligi va to’sqinlik qilish.

Yettinchidan, davlat xizmatchilari xususiy sektordagi ishchilarga qaraganda kam maosh olishi ya’ni oylikning pastligi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat xizmatchilarining malakasini doimiy ravishda oshirib borish kerak bo'ladi. Korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularning oilaviy sharoiti va moddiy ahvolini o'rganish va ular bilan alohida o’quv tarbiyaviy tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi tashkilotlarning mustaqilligini yetarli darajada ta’minlash ushbu tashkilotlarni yetarli resurslar bilan ta’minlash, ichki nazoratni kuchaytirish va jamoaviy harakatlarni rag’batlantirib borish korrupsiyani oldini olishga yordam berishi mumkin.

Bir tomondan olib qaraydigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi kurashishda ta’limni samaradorligini ta’minlash bu eng muhim vazifa hisoblanadi. Davlat kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor berishi va ma’suliyat bilan yondashishi kerak bo'ladi. Malakali kadrlarni tayyorlash bu ertangi farovonlik uchun qilingan eng katta xizmat bo'lishi mumkin. Kadrlarni tayyorlashda boshlang’ich va ilk bosqichdan boshlab halollik, poklik, vijdonilik, adolatilik tuyg’ularini biringchi navbatda singdirib borish kerak bo'ladi. Kadrlarni tayyorlashda ularga barcha qulay va zamonaviy sharoitlarni yaratib berish, axborot resurslaridan qulay ravishda foydalana olishiga imkoniyatlar yaratib berish kerak bo'ladi. *Aytaylik, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning hamkorligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha alohida olti oylik yoki bir yillik o’quv kurslarini tashkil etish va kadrlarning olgan bilimi bo'yicha alohida suxbat imtihon olinishi kerak. Imtihon oladigan hayat a’zolari esa malakali professor va mutaxassislardan tashkil topishi kerak. Imtihon jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash uchun alohida sharoitlar yaratilishi kerak bo'ladi.*

Boshqa tomondan olib qaraydigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi kurashishda samaradorlikka erishish va ijobiy natijalarga ega bo'lish uchun korrupsiyaga qarshi kurashishda ilg’or va yuksak natijalarga erishayotgan xorij taribasiga tayanish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishda ulardan andoza olish shuningdek milliy qonunchilikka tatbiq etish muhim hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda yuqori darajada samaradorlikka erishish uchun korrupsiya darajasi past bo'lgan rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish va andoza olish albatta kutilgan ijobiy natijalarni beradi.

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to'sqinlik qiladigan xatarli tahdid. Tahlillarga ko'ra, hozirda korrupsiyaning dunyo miqyosidagi zarari 3 trillion AQSH dollariga yaqin miqdorni tashkil qilmoqda. Ammo men bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko'rileyotgan real zararning aniq hajmini to'liq ifoda eta olmaydi, deb hisoblayman. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir" deb atgan edilar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat oldidagi eng katta asosiy vazifalardan va ushbu illatga qarshi kurashish uchun avvalo yetishib chiqayotgan yosh kadr va mutaxassislarni zamonaviy bilim va tajribaga ega bo'lishini to'liq darajada ta'minlash va ularga keng imkoniyatlar yaratib berish ularni halollik, poklik va adolatlilik prinsipiga moslashtirish shuningdek ushbu tuyg'ularni doimiy ravishda singdirib borish. Xalqaro xorij tajribasidan namunalar olish va o'z qonunchilikka kiritish, davlat xizmatchilarini malakasini doimiy ravishda oshirib borish natijada qonun ustuvorligini to'liq darajada ta'minlash darkor. Fikrimcha, korrupsiyaga qarshi kurashishda doimiy vazifa va rejalar bilan kifoyalanib qolinmasligi kerak. Doimiy ravishda o'zgarish va yangi isloxtolar amalga oshirilish davr talabi bo'lib kelmoqda.

Korrupsiyani oldini olishda bir qancha fikrlarim mavjud bular quyidagilardir;

1. Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatini amalga oshirishda jamoatchilik nazoratini, jamoatchilik xabardorligini oshirish va fuqarolik jamiyatini jalb etish;
2. Davlat budgeti to'g'risidagi ma'lumotlarni va tashkilotlarga ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiq partalda saqlanishi;
3. Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida elektron tizimga butunlay o'tish. Agarda elektron tizimga butunlay o'tilsa tender va tanlovlар ochiq va shaffof, teng amalga oshiriladi va doimiy monitoring qilish imkoniyati vujudga keladi;
3. Ma'muriy to'siqlarni, diskretsion vakolatlarni kamaytirish va raqamlashtirish;
4. Manfaatlar to'qnashuvini tubdan takomillashtirish;
5. Jazo tizimini tubdab takomillashtirish va korrupsion jinoyat sodir etganlarga jazoni og'irlashtirish;
6. Davlat va xususiy sektorda korrupsiyaga qarshi madaniyatni tubdan shakllantirish;
7. Qonunlardagi bo'shliqlarni bartaraf etish;
8. Noqonuniy boylik orttirish va suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish maqsadida nazoratni kuchaytirish;
9. Jamoatchilik muhokamalarini o'tkazib turish;
10. Mansabdor shaxslarning ustidan ichki va tashqi nazorat tizimining yetarli ta'minlash;
11. Xodimlarning huquqiy bilimi va malakalarini doimiy oshirib borish;
12. Qonun ustuvorligini to'liq darajada ta'minlash;
13. Jamiyatning va mansabdor shaxslarning korrupsiyani qabul qilmaslik masalasiidagi ahloqiy va psixologik munosabatini shakllantirish;
14. Xalqaro reytinglarni metodologik va boshqa tarkibiy qismlarini aniqlash, ularni amaldagi qonunchilikka implementatsiya qilish, xalqaro reytinglardagi past ko'rsatkichlariga sabab bo'layotgan asosiy omillarni aniqlash;

15. Normativ huquqiy hujjatlarning loyihibarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazishni yanada takomillashtirish va korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqarayotgan va rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan normlarni aniqlash va ekspert tahlil qilish hamda tahlil natijalariga ko'ra ularni bartaraf etish;
16. Oylik maoshlarni oshirib borish va xodimlarni rag'batlantirib borish;
17. Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mustaqilligini yetarli darajada ta'minlash;
18. Xorijiy davlatlarning ilg'or yo'naliishlar bo'yicha tajribasini o'z ichiga olgan axborotlar bazasini yaratish va takomillashtirish.

Singapur davlatida kadrlar maktab davridanoq kuzatib boriladi, ular eng aqilli, professional jihatdan kuchli va salohiyatli bo'lishi uchun kadrlarni universitetlarga kirishiga davlat yordam beradi. Agarda huddi shu tizim O'zbekistonda joriy qilinsa kelajakda "Kadrlar muammosi" bo'lmasligi mumkin. Hokimiyatni boshqarish jarayonining shaffofligi, davlat xizmatchilarining ma'suliysi va halolligi ortadi. Bilamizki, hozirda O'zbekistonda kadrlarni tayyorlashda va ularni malakasini oshirishda bir qancha muammolarga duch kelinmoqda. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi monitoring qilinib, har 3-5 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlar qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Gruziyadan qanday andoza olish mumkin?

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish kerak, qanday? Ichki ishlar, bojxona, soliq tizimlarini butunlay qayta tuzish orqali korrupsiya imkoniyatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

O'zbekistonda qanday qilib korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish mumkin? Shaffoflik – bu davlat xaridlari va davlat byudjeti mablag'lari xarajatlari bilan barcha hujjatlar ochiq qo'llash orqali. Biz axborotdan foydalanish prinsipi korrupsiyaga qarshi kurashishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda hozirgi kunda ba'zi joylarda katta muhokamalarga sabab bo'layotgan yana bir muhim masalalardan bir bu – daromadlar deklaratsiyasi. Hozirgi O'zbekiston tizimida ushbu deklaratsiya jorish qilinishi kerak. Taqqoslaydigan bo'lsak, Finlandiya mamlakatida ushbu deklaratsiya joriy qilingan bo'lib ushbu davlatda korrupsiya holatlari ancha past va yaxshigina samaradorlikka erishgan. Mamlakatimizda yuqori lavozimli amaldorlari davriy ravishda o'zlarining daromadlari va ularning manbalari to'g'risida deklaratsiyani taqdim etishlari shart va ular muntazam ravishda e'lon qilib borilishi kerak.

REFERENCES

1. O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi qo'llanma; Mualliflar: B.A.Aliyev, A. Muxtarov, T.O.Norov, N.N.Qodirov, J.K.Bayaliyev, A.Muzaffarov (2022)
2. <http://lex.uz//docs/-3088008> O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonuni
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish choratadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023 yildagi PF-200-son Farmoni.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida "Komplaens-nazorat" tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish; Mamanov Sardorjon Sobir o'g'li: Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi [avtoreferati](#).